



ISLOM IQTISODI INQIROZLARGA YECHIMMI?!

To'xtamurodov Abdurahmon Dilmurod o'g'li

Annotatsiya:

Ushbu maqolada islom iqtisodi orqali boshqariladigan jamiyatlarda inqirozlar uchramasligi va hozirgi paytdagi inqirozlarning kelib chiqish sabablari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar:

Islom iqtisodi, kapitalizm, sotsializm, iqtisodiy inqiroz, kredit, muzoraba

Kirish:

Sotsializm insonni ishlab chiqarishga, mehnat qilishga undaydigan mulk huquqini bekor qilib, mehnatkash bilan dangasani bir xil darajaga keltirib qo'ygan. Kapitalizm esa mehnatdan topilgan sarmoyani mehnatkashga xo'jayin qilib, halol mehnatga asoslangan ishlab chiqarishning yo'lini to'sadi. Islom esa mehnat orqali to'plangan sarmoyani faqat peshona teri orqali ko'paytirish sharti bilan odamlarni undan foydalangan holda ishlab chiqarishga chorlaydi. Demak, Islomda sarmoya mehnatning raqibi emas, balki natijasidir.

Asosiy qism:

Omonatchilardan pul to'plagan banklar tadbirkorga foizli qarz beradi. Tadbirkor ham o'z navbatida, ishlab chiqargan mahsulotining tannarxiga bankka to'lagan foizini qo'shadi va mahsulot narxini oshiradi. Pulini bankka qo'ygan omonatchi esa qo'lga kiritgan foizini ishlab chiqaruvchidan qimmatroq olgan mahsuloti uchun to'lashga majbur bo'ladi. Bunday holatda o'z-o'zidan aniqki, foyda ko'rgan taraf bitta, ya'ni bank bo'lib qoladi.



Islom iqtisodiyoti mehnat asosida ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyot modelini targ'ib qiladi va kapitalizmning foizga asoslangan iqtisodiy modellarini rad etadi. Chunki Islomda sarmoya mehnatning natijasi bo'lsagina halol hisoblanadi. Unda kapitalizm kabi puldan pul chiqarib daromad olish usuli qoralanadi. Insoniyatga berilgan eng mukammal din bo'lgan Islomda kelgusida foiz olish uchun sharoit, muhit yaratadigan pul jamg'arish ham ma'qullanmaydi.

Foiz asosidagi iqtisodiy tizim esa banklar orqali to'plangan pulni ozchilikning ixtiyoriga topshiradi. Islom bundan farqli holda zakot vositasida pulning bir qismini kambag'allarga qaytarib beradi. Foiz boyni yanada boy, kambag'alni yanada kambag'al qiladi. Zakot esa kambag'al odamni oyoqqa turg'azadi. Shu tariqa jamiyatda o'zaro yordamlashuv paydo bo'lib, muvozanat ta'minlanadi.

Bankka qog'oz pullarini topshirgan mijozlar omonatlarining faqat bir qismini zaxirada tutib, qolgan qismini kredit va boshqa shakllarda tadbirkorlarga berishi va muomalaga chiqarishiga asoslangan bank tizimi paydo bo'ldi. Bu tizim quyidagicha ishlaydi: aytaylik, 10 dollaringiz bor va bu pulni bankka topshirdingiz. Topshirgan omonatingiz muddatsiz va foizsiz bo'lsin. Bank bu 10 dollarning 10 foizini, ya'ni bir dollarini g'aznada saqlab, qolgan 9 dollarini boshqa bir kishiga kredit sifatida berib yuborishi mumkin. Bankning hisob raqamida istalgan payt siz olishingiz mumkin bo'lgan 10 dollar va undan foydalanish uchun kreditga berilgan 9 dollar ham bor. Shu tariqa u pul 19 dollarga aylandi. Ya'ni haqiqatda mavjud bo'lmagan qalbaki 9 dollar paydo bo'ldi. Pulning jisman mavjud bo'lishining ahamiyati yo'q. Bu mavzuni kengroq izohlashga harakat qilamiz: aytaylik, siz bankdagi 10 dollaringizni qaytarib olmoqchi bo'ldingiz. Bankning g'aznasida esa 10 dollar yo'q. Bank esa darhol Markaziy bankdan 10 dollar kredit oladi-da, sizning pulingizni qaytarib beradi. Shu zaylda jisman mavjud bo'lmagan pullar ham banknotga aylanib qoladi. Bunday holatda pul bankning zaxira qismi deb ataladigan mantiqqa ko'ra bosiladi. Asta-asta soxta pulning hajmi haqiqiy pul hajmidan bir necha barobariga ko'payib



ketishi mumkin. Bunga bog'liq ravishda XX asr oxirlariga borib, malakali iqtisodchilar ham tushunmaydigan darajada chalkashlik va tavakkalchilikka asoslangan moliyaviy muhandislikning matematika bo'limi paydo bo'ldi.

Muzoraba tomonlarning biridan tovar (pul) va boshqasidan mehnat bilan sherikchilikka asoslangan kelishuvdir. Unda tovar egasi ishlovchiga tijorat uchun tovar beradi. Topilgan foyda o'rtalarida kelishuvlariga muvofiq tarzda taqsimlanadi. Zarar esa faqat sarmoyadan ayiriladi. Muzorabaning sarmoya va foyda bilan bog'liq shartlari mavjud. Bunga ko'ra sarmoya naqd bo'lishi lozim. Shartnoma tuzilayotgan paytda ma'lum va mavjud bo'lishi va uni ikkinchi tarafga topshirilishi kerak.

Misr fir'avnlari tomonidan boshqarilgan paytlarda foizning asosiy pul miqdoridan oshib ketishi taqiqlangan. Qadimgi Yunon va Rimda ham qarzini to'lay olmasdan qarz berganing quliga aylangan, qarzdorning javobgarligi uning barcha qarzlarini miqdori o'n ikki foizdan oshib ketmasligi belgilangan. Sharqiy Rim imperatori Yustinian tijorat uchun shu foiz miqdorini o'zgartirmasdan zodagonlar uchun bu miqdorni to'rt foizga tushirgan.

G'azzoliy ta'kidlaganidek, puldan pul ishlab topish yoki foiz olish uchun pul berish pulning yaralish hikmatiga zid harakatdir. Pul maqsad emas, balki vositadir. Pulni maqsad sifatida qabul qilgan iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish rivojlanmaydi, ishsizlik ortadi. Chunki sarmoya egalari ishlab chiqarishga pul tikib tavakkal qilishdan ko'ra foiz orqali kamroq xatar bilan daromad qilishni afzal bilishadi. Pul tijorati, Imom G'azzoliy aytganidek, pulni ko'mib qo'yishdan o'zga narsa emas.

Kapitalizm "Avval pul" deydi, Islom dini esa "Avval inson" deydi. Foizli tizimda inson iqtisodiyot uchun vosita bo'lib qoladi. Bank undan pul olgan mijozning ustiga, u qarzini to'lab bo'lmasidan yana qarz yuklaydi. Shu bois G'arbda banklar mijozlardan pulni past foizda yig'ib olib, baland foizda mijozlarga berishadi. Bu



holat “Mijozga quyoshli havoda soyabon tutib, yomg‘irda undan soyabonni olib qo‘yish”ga o‘xshaydi.

Xulosa:

Sarmoyani o‘zida ushlab turgan ozchilikning ko‘pchilikni ezish vositasi bo‘lgan qalbaki pul tizimi aslida ishlab chiqarishni sekinlatib, ishsizlikni oshirib, kapitalistik tuzumga ham tahdid qiladi. Imom G‘azzoliy hazratlari bir necha asrlar avval Islomda foizdan pul topish nega taqiqlangani va insoniyat saodatga erishish uchun qanday yo‘l tutishi kerakligini aniq bayon qilganlar. Sharqning buyuk mutafakkiri aytganidek, foiz orqali daromad qilish odamni mehnatdan uzoqlashtiradi, ishlab chiqarish turg‘unlashadi va jamiyatda tengsizlik kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Global inqirozdan chiqish: Islom iqtisodi" Ehson Shenojak
2. Altan Mikoil, Foizsiz bankchilik asoslari, Islom huquqi tadqiqotlari jurnali, 16-son, 2010-yil
3. Jomiy Ahmad, an Nazariyotul Iqtisodiya, Qohira, 1976
4. Al Alvoni, Taxo Jobir, Ozchilik fiqhiga kirish.
5. Al G'azzoliy Muhammad Homid, "Ihyou ulumiddin", Dorus Sadir, Bayrut, 1997
6. www.islamreligion.com/articles
7. Al Usmoniy Muhammad Toqiy, Fiqhul Buyu, maktabatu Maarifil Qur'an, Karachi, 2015